

ABDULLA AVLONIY SHE'RLARIDA HURRIYAT KONSEPSIYASI

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

THE CONCEPT OF LIBERTY IN THE POEMS OF ABDULLA AVLANI

Jorayev Oybek Sherali ogli

TDPU named after Nizami, Uzbek Language and

Literature Department 3rd Grade Student

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek jadidchilik harakatining namoyondalari bo'lgan shaxslar va ularning ichida o'z faoliyati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan inson – Abdulla Avloniyning she'rlarida mustaqillik g'oyasining aks etishi tahlilga tortilgan.

Abstract:

In this article, the reflection of the idea of independence in the poems of Abdulla Avlani, a person who left an indelible mark in history with his work is analyzed.

Kalit so'zlar: mustaqillik, jadidchilar, she'riyat, mafkura, g'oya, tanosub, nido, gazeta, Abdulla Avloniy, tahlil, xalq, leksema.

Keywords: independence, fighters, poetry, ideology, idea, ratio, cry, newspaper, Abdulla Avloni, analysis, people, lexeme.

Biz o'z taqdirimizni azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday oliyjanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lida erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik bergenini bugun hammamiz chuqr anglaymiz [1; 3].

Mustaqillik biz uchun eng oliy ne'mat, lekin bu ne'mat qadriga yetmoq kerak, anglamoq zarur. Bundan yuz yil avval bu hudud Sovet ittifoqi tarkibidagi qaram respublika edi. Ana shunday qiyin vaziyatda bir qancha jadid bobolarimiz mustaqillik uchun kurash olib bordilar.

O'zbek davlatchilik tarixida jadidlar deya ulug'lanuvchi Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy kabi shaxslar o'zining faol ishtiroki bilan xalqning dardiga darmon bo'lib, mustaqillik deya atalmish tarixiy hodisa uchun jonidan kechib harakat qildi. Ular o'z davrining faol pedagogi, siyosatchisi,

adabiyotshunos va tilshunos olimi, eng asosiysi ijodkor davlat arboblari edi. Bular orasida Abdulla Avloniyning faoliyati o‘zgachadir.

Pedagogik faoliyatdan tashqari Abdulla Avloniy istedodli shoir ham edi. U o‘z she’rlarida adolat, hurriyat, ilm olmoq, yaxshi xulqli, go‘zal odobli inson bo‘lishga chaqiruvchi g‘oyalarni ilgari suradi. Masalan, uning “Hurriyat sharafina” she’ri ana shunday she’rlar sirasiga kiradi. Ushbu she’r 1917-yilda “Turon” gazetasida bosilib chiqqan.

Chun bahor o‘ldi, ochildi- gul ochildi har yondan,
Bulbul aytdi oh- zorini, nola chekdi, o‘qudi.
Ko‘rdi bulbul hurriyatni so‘yladiki: ey jonon,
To qiyomat barqaror o‘l, hech yo‘q o‘lma olamdan!
Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,
Jon qilubdur necha inson senga qurban, hurriyat.

Tushsa zindon, cheksa afg‘on, nola qilsa mazlumlar,
Qip -qizil qong‘a bo‘yardi, begunohni zolimlar.
Rahmi keldi Tangrimizni, bizga dedi, oh bandam,
Olg‘il emdi hurriyatni, bor, qo‘pg‘il motamdan.
Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,
Jon qilubdur necha inson senga qurban, hurriyat. [2]

She’rni nomlanishiga e’tibor beriladigan bo‘lsa, hurriyat so‘zi mustaqillik, erkinlik, hurlik, ozodlik so‘zлari bilan sinonim bo‘luvchi so‘zdir. Chindan ham hurriyat har bir millat uchun sharafdir.

She’rning boshlanishi tahlilga tortilsa, bahor o‘lishi bu ramziy ifodaga ega bo‘lib, erkinlikning qo‘ldan ketishini anglatadi. Har yondan gullar ochilishi yangicha fikrli yosh jadidlarning voyaga yetib, gul kabi ochilib chiqishidir. Shoir Hurriyat uchun jon qiluvchi insonlarni gulning ochilishiga qiyoslaydi. She’riy misralarda shoirlar ko‘p hollarda tanosib [3] san’atini qo‘llaydi. Shu o‘rinda ijodkor gul va bulbul so‘zlarini qo‘llash orqali shunday san’atni hosil qilgan. Ko‘rdi bulbul hurriyatni birikmasi orqali bulbul (barcha o‘rinlarda bulbul so‘zi jadidlarga ishora qilgan – O.J) boshqa millatlardagi mustaqillikning insonlarga qanchalik ko‘p imkoniyatlar berishini bilgan edi.

Shu o‘rinda shoir tomonidan ey jonon, jonon hurriyat, hurriyat nomli undalmalarni qo‘llash orqali ijodkor nido san’atini yuzaga keltirgan.

Qip-qizil qong‘a bo‘yardi begunohni zolimlar misrasidagi zolimlar leksemasi Sovet ittifoqiga ishoradir. Bundan oldinga misra orqali shoir xalqning ahvolini, zindonga tushgani, qiyinchiliklar chekkani, mazlumlarning nola qilganini misralarda ifodalaydi. Ko‘p kishilar shu ezilgan xalq uchun jondan kechadi. Yetimlarning och-yalang‘och, zor-giryon ekanliklari,

mustabid tuzumning xalqqa rahm-shavqat qilmaganliklari keyingi misralarda yorqin aks etadi. Afsuski buning hammasi achchiq haqiqat edi.

Uxlamoq, yotmoq zamoni o‘tdi emdi, ey do‘stlar,
Ishlamoq, yurmoq zamoni ilgaridur har yondan.
Bu saodatning zamoni sa’yimizga bog‘lidur,
Qaysi ishning vaqt o‘tsa bo‘lg‘usidur Hijrondan.
Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,
Jon qilubdur necha inson senga qurban, hurriyat. [2]

Shoir uxlamoq, yotmoq vaqt o‘tdi deya bevosita xalqqa murojaat etadi va xalqni ko‘tarilishga, uyg‘onishga da’vat qiladi.

Sa’y so‘zining sinonimi harakat hisoblanadi. Saodatli zamon uchun harakat qilmoq zarurligini va bu ishlar o‘zimizga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

Qaysi ishning vaqt o‘tsa bo‘lg‘usidur Hijrondan misralari orqali shoir, amalga oshmagan ishlarning barchasida o‘zini ayblaydi. Ko‘plab kishilarning mustaqillik uchun jon fido qilishga tayyor ekanligi va uni intiqlik bilan kutayotganini aks ettiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdulla Avloniy o‘z davrining yetuk ijodkorlaridan hisoblanib, she’rlarida o‘zi yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks ettiradi. Uning she’riyatga qo‘shegan hissasidan yana biri shuki, birinchi bo‘lib Abdulla Avloniy mardikorlik yo‘nalishini adabiyotga olib kirdi.

U she’rlarida o‘sha davrdagi voqeа-hodisalarini aks ettirdi va hurriyat marshini baralla chaldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 500-503.
2. Dilafruz, Kalandarova. "Issues Of Uzbek Folklore And Its Research In Germany." Journal of Positive School Psychology 6.9 (2022): 4395-4398.
3. Reichl, Karl. Routledge Revivals: Turkic Oral Epic Poetry (1992): Traditions, Forms, Poetic Structure. Routledge, 2018.
4. Каландарова, Д. А., and З. Ф. Каршибоева. "ХАРАКТЕР ТВОРЦА В ПОЭЗИИ БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.
5. Kalandarova Dilafruz, Dilafruz. "Research of the Sherabad Epic School Abroad." International Journal on Integrated Education 5.10 (2022): 149-151.

6. Alimova, Z. K. "Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of their Activities." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 268-273.
7. Mansurovna, Rasulova Iroda, and Alimova Zulfiya Karimovna. "The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).
8. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Reforms in the Field of Preschool Education and Modern Pedagogical Methods of Teaching." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.5 (2022): 105-110.
9. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Education of children through national mobile games in preschool educational institutions." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 486-490.
10. Алимова, Зулфия Каримовна, and Диляфуз Абдужамиловна Каландарова. "Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях." *ИНОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ*. 2020.
11. Алимова, З. К., and И. М. Расулова. "ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.